
MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDAGI KODEKSGA MUAYYAN YASHASH JOYIGA EGA BO'LMAGAN SHAXSNI REABILITATSIYA MARKAZIGA JOYLASHTIRISH TO'G'RISIDA ISH YURITISH TARTIBI KIRITILDI

"O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi"ga o'zgartish va qo'shimchalar O'RQ-810 sonli qonun 16.12.2022 yil kiritildi.

Qonun bilan Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarni reabilitatsiya markaziga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqishga doir normalarini Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga o'tkazish hamda tegishli ishlarni ko'rib chiqishni ma'muriy sudlardan jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlariga o'tkazish belgilandi.

Unga ko'ra, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxsni reabilitatsiya markaziga joylashtirish to'g'risida ish yuritish tartibi kiritildi.

Muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxsning reabilitatsiya markaziga joylashtirilishini talab qiluvchi asoslar aniqlanganda, ichki ishlar organi bunday shaxs ichki ishlar organiga keltirilgandan e'tiboran 48 soatda uni reabilitatsiya markaziga 30 sutkadan ko'p bo'lmagan muddatga joylashtirish to'g'risida sudga iltimosnoma yuborish uchun materiallarni tayyorlashi shart.

Muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxsni reabilitatsiya markaziga joylashtirish to'g'risidagi materiallar bunday shaxs aniqlangan yerdagi yoki reabilitatsiya markazi joylashgan yerdagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudiga ichki ishlar organi tomonidan beriladi.

Iltimosnoma taqdim etilgan paytdan e'tiboran 24 soat ichida sudya tomonidan yopiq sud majlisida yakka tartibda ko'rib chiqiladi.

Jinoyat ishlari bo'yicha

Quvasoy shahr sudining raisi R. Zaripov

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-01-07 10:22:10